

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA REPREZENTATIV AKT

Yaxyoyeva Umida Ibrohim qizi

Buxoro davlat universiteti doktoranti

Umidayaxyoyeva02@gmail.com

+998978604810

Annotatsiya *Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli hikmat bo'lmish maqollar ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollari nutqiy aktning representativ turi bo'yicha tahlilga tortildi.*

Kalit so'zlar: *nutq akti, representativ, tasdiq, xabar, baho komponenti*

REPRESENTATIVE ACT IN UZBEK PROVERB

Abstract. *Proverbs are examples of folklore created as a result of folk wisdom. They embody a deep content, a certain concrete form, and the life experiences, attitude to society, history, mental state, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities of the ancestors. A representative act is the perception of reality in existence, its expression by the speaker through linguistic means, and its understanding by the listener. Representative acts in speech communication can sometimes be understood differently based on the listener's thinking. In this research, we analyzed proverbs from the point of view of a representative act based on excerpts from various works*

Keywords: *speech act, representative, confirmation, message, evaluation component*

ПРЕДСТАВИТЕЛЬСКИЙ ДЕЙСТВИЕ В УЗБЕК ПОСЛОВИЦА АБСТРАКТНЫЙ

Пословицы – это образцы фольклора, созданные в результате народной мудрости. В них воплощены глубокое содержание, определенная конкретная форма, жизненный опыт, отношение к обществу, истории, душевное состояние, этико-эстетические чувства, положительные качества предков. В данной статье пословицы изучаются с точки зрения репрезентативного поступка. Репрезентативный акт – это восприятие существующей реальности, ее выражение говорящим посредством языковых средств и ее понимание слушающим. Репрезентативные акты в речевом общении иногда могут пониматься по-разному в зависимости от мышления слушающего. В данном исследовании мы проанализировали пословицы с точки зрения репрезентативного поступка на основе отрывков из различных произведений.

Ключевые слова: *речевой акт, представитель, подтверждение, сообщение, оценочный компонент.*

KIRISH

Maqollarning nutqiy harakat sifatidagi tushunchasi ancha vaqtdan beri mavjud bo'lib, ushbu nutq harakatining maqollarga nisbatan qo'llanilishining dastlabki namunasi jahon tilshunosligida uchraydi. Maqollar anglatgan ma'no nafaqat to'g'ridan-to'g'ri bo'lib, balki ichki yashirin ma'nolarga ham ega bo'ladi. Maqolning aynan qanday pragmatik ma'noda qo'llanilgani konteksdangina anglashiniladi. Nutqiy aktlar tilshunoslik nazariyasida muhim tushuncha hisoblanadi. Nutqiy aktlarni anglash va ularni to'g'ri talqin qilish samarali muloqotning ajralmas qismidir. Har bir nutqiy akt insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida aniq bir maqsadni bajaradi. Bu orqali insonlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, niyatlarini ifoda etadilar va o'zaro tushunishga erishadilar. Nutqiy aktlarning ma'nosini chuqur anglash nafaqat tilni yaxshi bilishga, balki insonlararo aloqalarni samarali yuritishga ham zamin yaratadi. Bu esa shaxsning kommunikativ salohiyatini oshiradi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkonini beradi. Nutqiy aktlar nazariyasi tilshunoslik va pragmatika sohasida muhim o'rin tutadi. Bu nazariya muloqot jarayonlarini tahlil qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Har bir nutqiy akt turi — buyruq, iltimos, taklif, ogohlantirish, savol, va hokazolar — so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar va muloqot maqsadlarini yoritib beradi. Ko'rinadiki, nutqiy aktlar nafaqat til orqali muloqot qilish vositasi, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni tartibga soluvchi muhim elementdir. Ularni chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash orqali har bir shaxs o'zining muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi mumkin. Ushbu atama tilning og'zaki yoki yozma shakllarida bajariladigan harakatlarni anglatadi. Har qanday gapni ifoda etishdan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Bu maqsad til sohibi ongida doimo mavjud. Ushbu maqsadning voqealanishi esa illokutiv akt natijasidir.¹² Ana shunday illokutiv aktlarning birinchi turi — representativ akt bo'lib, u olamni tushunishdan iborat. Demak, nutqiy aktning bu turini nutq ishtirokchilari tomonidan olam va uning elementlarini tasavvur hamda idrok qilish jarayoni deb izohlash o'rinli bo'ladi. Mazkur tadqiqotda qiyoslash orqali maqollar representativ tahlilga tortildi.

Quyida **“O'ynashmagil arbob bilan, arbob urar har bob bilan”** maqoli qatnashgan asarlarga yuzlanamiz va representativ akt nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz:

1. Abulqosim Mamaraliyev "Taftish" hikoyasi

Mamat akasi uyida bolishga yonboshlab yotgan ekan. Zo'rg'a qo'zg'alib, o'tirdi.

- O'tir.

Tojiboy o'tirdi.

- Yangi mashinani oldingmi?

Tojiboy indamadi.

¹² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008

- Ha? Nega jimsan? Keyingi kunlarda tiling uzayib ketgan edi-ku!
- E, nima bo'lsa bo'ldi-da, aka, hadeb ijikilayverasizmi? Nima foydasi bor?
- Nima, aka bo'lib jim o'tirishim kerakmi? Tayoqning bir chekkasi bizgayam tegadi. Xidirning avzoyi buzuq. Bir kun qo'qqisdan melisa chaqirtiraman-da, ikkovingniyam uyingni tintuv qildiraman. Yo'q deganda bir paqir yem chiqadi-ku. Ana undan keyin dodingni xudoga ayt, dedi. Ukam-ov, **o'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan.**

Mazkur hikoyada Barlos qishlog'ining mo'min-qobil, bechoragina fuqarosi Tolibjon o'z rahbarining poraxo'rliги, tanish-bilishchilik qilib odam ayirayotgani ustidan yozadi. Avvalgi direktor ishni boshqara olmagan uchun vazifasidan ozod etilgani hamda uning o'rniga kelgan bosh zootexnik Xidir Sobirovich poraxo'rlikda undan ta'lim olganligi ustidan shikoyat qiladi. Ushbu nutq parchasidan anglashiladiki, Tolibjonning akasi Mamat ukasiga "Kattalar bilan o'ynashishning oqibati" nimalar bilan tugashi haqida xabar berib, mazkur maqolni qo'llaydi.

2.Yusuf Siddiq"Evrilish" hikoyasi

— Senga mening mansabim kerak, shuning uchun o'lib-tirilib ishlayapsan! — deydi hokim Dehqonga.

— Nima, arzimaymanmi? - deb kekirdagini cho'zadi Dehqon ham. Shundan so'ng tekshir-tekshir boshlanadi. **"O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan!"**. Shunday bo'ladi. Urganda ham qaytib turmaydigan qilib uradi. Yillar o'tadi. Dehqon non-nasibasini terib yeb, uyiga, dalasiga qaytadi. U endi qo'l uchida ishlaydi. Parvozig intilgan bolasini yelkasidan bosib: — Qayoqqa shoshasan, uchsang anavilar boli-patingni yulib tashlashadi, - deydi. So'ng hayotdan olgan falsafiy o'gitini aytadi: - Bolam, bu dunyoda odam qoziqqa o'xshaydi. Qoziqning uch tomoni bo'lsang, urib yerga kiritib yuborishadi, orqa tomoni bo'lsang, pachag'ingni chiqarishadi. Qoziqning o'rtasi bo'lib yasha — yerga ham kirib ketmaysan, kaltak ham yemaysan.

Mazkur hikoyada dehqonning noni yarimta bo'lishi, kosasi oqarmayotganiga noto'g'ri mahalliy boshqaruv tizimi sababchi ekanligi ko'rsatilgan. Go'yoki hokimlar o'zlarini ishlayotgan qilib ko'rsatish uchun xar xil tekshir-tekshirlarni o'ylab topishayotganmish. Muallif bitta qiziq misolni keltirgan. Emishki bitta dehqon xo'jaligi rahbari hokim ruxsatisiz chigit ekishni boshlab, hammadan oldin ekib bo'lgani uchun paxta maydonini buzib, qayta ekishga majbur etiladi. Bu ham yetmagandek tomorqaga ekilgan boshqa ekinlar shudgor qilib tashlanadi. O'jar dehqon yana boshqalardan oldinroq chigitni ekib ko'kartirib oladi va bu jonbozligi uchun hokimning g'azabiga uchraydi, Natijada "arbobning har bob bilan urilishiga" duchor bo'ladi. Mazkur hikoyada esa inson qanchalar haq bo'lmasin uning harakati "kattalar siyosatiga to'g'ri kelmaydimi, u albatta qarshilikka duchor bo'ladi". Uning qilgan mehnati, chekkan zahmati evaziga olgan "mukofoti" uning o'zboshimchaligi deb topilib jazoga muhtalo bo'ladi.

3.A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasi

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birolarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! **“O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan”.**

Mazkur hikoyada Qobil bobo dastlab ellikboshiga, so'ngra aminga undan so'ng pristavga, navbatda tilmochga ho'kizi yo'qolganidan shikoyat qiladi. Qobil bobo ushbu mansabdorlar uning shikoyatini eshitishlari uchun “bor-yo'g'ini” ularga beradi va olgani faqat quruq maslahatgina edi.



1-jadval. Qobil bobo murojaat qilgan kimsalar

4.Hamza Hakimzoda Niyoziy “Boy ila xizmatchi” pyesasi

Q o z i. (G'ofirga.) Hozirgi inoding ayni hamoqat!

Xolmat (imomga.) Charchamaysiz, domla pochcha, faqat quruq qoshiq og'iz yirtadi, xolos! Satqayi gapingiz ketsin, bu gadoga! Bunga o'xshagan mingta sarp ayog'dan sizlar uchun boyga o'xshagan bitta ho'l tayoq yaxshi!

Hasan . Sen boy bilan o'ynashma.

Imom. “O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan”.

Mazkur parcha Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” pyesasidan olingan bo'lib, pyesa voqeasi uch xotin, besh farzandli oltmish yoshli Soliboy yoshi bir joyga borib qolganda G'ofir ismli xizmatkorini uylantirib, “san mani o'g'linsan, xotining endi menga kelin bo'ldi”, deb turib Jamilaga ko'zi tushishi bilan ahddidan qaytib “shariat peshvolari” bo'lmish o'zining laganbardorlari domla, qozi, imom va Xolmatlarni chaqirib G'ofirni xotinini taloq qilishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. Ammo G'ofirni so'z bilan xotinini qo'yishga ko'ndirolmagach, har narsani o'z qarichi bilan o'ldiradigan laganbardorlar Gofirni qarshiligini uning muddaosi bo'yni pulida gumon qilib “Quruq qoshiq og'iz yirtar” maqolini aytishadi va Gofirga ming so'mni tutqazadi. Ular dastlab kelishish yo'lini tutib G'ofirni bo'yliligini pul bilan olishmoqchi bo'lishadi, ammo niyatlariga

yetolmagach tahdid qilib, G'ofirning qaysarligi o'z boshiga yetishini ishora qilishadi. Bunda boy laganbardorlari yordamida G'ofirni yo'q qilib yuborishi mumkinligidan xabar beradi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, reprezentativ aktli maqollar tinglovchiga muhim xabar yoki saboqni ixcham, qisqa ifodalarda yetkazadi. Ushbu tahlillar ko'rsatdiki, pragmatik, ya'ni implitsit ma'no ijodkorning maqsadlari tufayli paydo bo'ladi va bunda kontekstning o'rni katta ahamiyatga ega. Zero, maqollar turli kontekstlarda turlicha illokutsion aktlar orqali ishlatilishiga guvoh bo'ldik. Yuqorida bir maqol ijtimoiy munosabatlarda ijobiy baholash akti sifatida ishlatilsa, boshqa kontekstda u tanqidiy akt sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rib o'tdik. Demak, kontekst maqolning ma'nosini, uning qanday kommunikativ vazifa bajarishini belgilab beradi. Biz ushbu ma'nolarni quyidagicha sxemalashtirdik.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, reprezentativ aktli maqollar tinglovchiga muhim xabar yoki saboqni ixcham, qisqa ifodalarda yetkazadi. Ushbu tahlillar ko'rsatdiki, pragmatik, ya'ni implitsit ma'no ijodkorning maqsadlari tufayli paydo bo'ladi va bunda kontekstning o'rni katta ahamiyatga ega. Zero, maqollar turli kontekstlarda turlicha illokutsion aktlar orqali ishlatilishiga guvoh bo'ldik. Yuqorida bir maqol ijtimoiy munosabatlarda ijobiy baholash akti sifatida ishlatilsa, boshqa kontekstda u tanqidiy akt sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rib o'tdik. Demak, kontekst maqolning ma'nosini, uning qanday kommunikativ vazifa bajarishini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakimov M. "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini". Filolog. Fan. Dok...diss. - Toshkent, 2001.

2. Norrick N. R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. - New York: Mouton, 1985

3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008

4. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Ma'nolar maxzani. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.

Jurnallar

1. Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan.

2. Ali, A & Makhlef, A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities.

3. Галперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. — М.: Едиториал УРСС, 2004. — 144 с.; Арнолд И.В. Импликация как прием построения

текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982. – №4. – С. 83-91.

4.Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities.

5.Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning.

6.Mieder, W. (2004) Proverbs: A Handbook. Westport/Connecticut/London, Greenwood Press.

7.Norrick, N. R. (1985) How Proverbs Mean. Berlin, Walter de Gruyter

8.Safarov Sh. Pragmalingvistika:monografiya. – Toshkent, 2008.

